

GLOBALASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI YOSHLAR ONGI VA QALBIDA SHAKLLANTIRISH

Raimova Muhabbat Qayumovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi

II kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yurtimiz barqaror taraqqiyotga erishishda yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda, bilim, ma'naviy qadriyatlar muhim omil bo'lib xizmat qilish masalasi o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, tahdid, globalashuv, bilim, ogohlik, tarbiya, shaxs, davlat, jamiyat, tuyg'u, immunitet, qadriyat, axborot, axloq, madaniyat, va boshqalar.*

“Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi”[1]. Inson dunyoga keldimi uning eng oliy huquqi yashash huquqidir. Lekin bu hayotda qanday yashash uning yolg'iz o'ziga bog'liq. Bugungi zamonda ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlari kuchaygan bir paytda yoshlarimizga mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini takomillashtirish davr talabidir. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishning bir qancha asosi va omillari, usul hamda vositalari mavjuddir. Asrlar davomida shakllangan va ajdodlarimiz tomonidan sayqallanib kelingan milliy qadriyatlarimiz yoshlar ma'naviy qiyofasini shakllantirishning eng muhim omillari hisoblanadi. Mutafakkir allomalarimizning aksariyati shaxs ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishga oid maxsus asarlar yaratib qoldirganlar. Bugungi kunda ushbu asarlar yoshlarimizning ma'naviy dunyosini boyitib, ularga xos voris sifatida shakllantirib boradi. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilik”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub”, “Hayrat ul-abror”, Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud Javonmardlik tariqati» va «Axloqi muhsiniy» [2] asarlari Sharq xalqlari ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin egallab kelgan. Mazkur asarlarda shukr va sabr qilishlik va uning fazilatlari bayon etilib, hayo, pokizalik, oliyhimmatlik, sobitqadamlik, adolatli bo'lish, avf etish, shafqatli va marhamatli bo'lish kabi axloqiy fazilatlari targ'ib etiladi. Bu asarlarda kishi faoliyatida chiroyli xulq va muloyimlik fazilatlarining mohiyatini ochib beriladi. Ohistalik va shoshilmaslik, andishalilik kabi xislatlarni kishi axloq odobida tutgan o'rnini bayon etar ekanlar, shijoat, g'ayrat, fursatni g'animat bilish kishi uchun zarur fazilat ekanligiga alohida to'xtalib o'tadilar. Ushbu asarlarda turli millatlar va dinlar vakillari



o'rtasida o'zaro hamjihatlik, tinch-totuvlik kabi bag'rikenglik tamoili ilgari suriladi. Mutafakkir allomalarimiz asarlarida islom dinining sof mohiyati ochib beriladi hamda har qanday zo'ravonlik va mutaassiblik, bosqinchilik, kishi joniga qasd qilish kabi johillik xislatlari qoralanadi, soxta pir va soxta tariqatchilarning asl qiyofasini fosh etadilar. Shuning uchun uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyalanuvchilarda milliy ma'naviy meros, milliy qadriyat va an'analarning ilk tushunchalarini qaror toptirish bo'yicha ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlari tizimini yaratish va bosqichma bosqich jadallashtirib borish lozim. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-ma'naviy merosiga tayangan holda milliy ta'lim-tarbiya tizimi ijobiy natijalarga erishishga yordam beradi. Jahonda mafkuraviy, g'oyaviy va axborot kurashlari kuchayib borayotgan murakkab va tahlikali globallashuv jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, farzandlarimizni turli mafkuraviy xurujlar va ma'naviyatga qaratilgan tahdidlardan himoya qilishga, har bir yosh avlodni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda dunyoda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirishda milliy ma'naviy merosimiz muhim o'rin tutadi. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, avvalo, hozirgi murakkab globallashuv jarayonida talaba yoshlarimizni ma'naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan himoya qilish ta'lim-tarbiya tizimining eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Yoshlarimizni turli ma'naviy tahdidlardan himoya etish va ularda milliy o'zligini anglash tuyg'usini hamda ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda milliy ma'naviy merosimiz, mutafakkir allomalarimizning ilmiy merosi muhim nazariy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Milliy ma'naviy merosimiz yoshlarimizda milliy axloq-odob qoidalari va sharqona etiket talablarini singdirishda muhim tarbiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarimizni turli ma'naviy tahdidlardan, diniy ekstremistik va "soxta tariqatchilik" g'oyalaridan himoya etishda hamda tasavvuf ta'limotini asl mohiyatini ob'ektiv tushunib olishda mutafakkir allomalarimiz ilmiy merosi muhim nazariy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish, yosh avlodning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularda internetdan foydalanish madaniyatini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ana shunday sharoitda faqatgina o'z fikri, tafakkuri, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida rivojlantirishga harakat qilgan inson, xalqgina o'zini asrab qolishi mumkin. mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning har bir ma'ruzalari va aholi bilan uchrashuvlarida yoshlarning huquqiy ta'lim-tarbiyasi yuzasidan zarur tavsiyalarni berib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining "Bosh Qonunimizni chuqur o'rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so'zsiz amal



qilish – barchamizning sharaflı burchimizdir”, degan fikrlari yoshlarni huquq-erkinliklarini o’rganishlari uchun keng yo’l ochib berdi. Konstitutsiya va qonunlarimiz xaqiqatdan ham qudratli kuchga ega huquqiy davlat va adolatli jamiyatni barpo etish uchun fuqarolarning huquqiy madaniyatini shakllantirish suv va havodek zarur. Yurtboshimizning “Oldimizga qo’yilgan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo’ladigan milliy g’oyani rivojlantirishimiz zarur”, degan so’zlari bugungi tahlıkali zamonda nihoyatda zarur va hayotiy haqiqatdir. Milliy g’oya, avvalo, har bir oilada tarkib topadi. Farzandlariga to’g’ri yurib, to’g’ri turishni o’rgatish huquqiy tarbiya bilan singdiriladi. Huquqiy tarbiyaning samaradorligi ko’p jihatdan ta’lim muassasalaridagi huquqiy bilimning chuqur o’rgatilishiga bog’liq. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-sonli qarori ham yoshlar uchun keng imkoniyatlarni ochib berdi. Vatanimizning ertanggi kuni, rivojlanishi va olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko’p jihatdan xalqimizning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati darajasiga bog’liq. Ma’lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarga ta’lim-tarbiya berish, har tomonlama yetuk shaxsni voyaga etkazish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylandi. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasini oshirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz mustaqillika erishgan ilk kunlardan boshlab inson huquqi, uning qadr qimmatı birinchi darajali masala sifatida ko’tarilib, barcha huquqiy asoslar yaratildi va yaratilmoqda. Jumladan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularning buzilgan huquqlarini tiklash, fuqarolar murojatlariga ma’suliyat bilan yondashish va asosiy vazifalarning yana biri bu jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlariga alohida e’tibor berilib kelinmoqda. Mamlakatimizda o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan bir vaqtda yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash mamlakatimiz oldida turgan muhim masalalardan biridir. Huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji o’sib kelayotgan avlod ta’lim darajasining, huquqiy savodxonligining yuqoriligiga bog’liqdir. Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat va davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma’naviy o’zgartirish sohasida keng ko’lamli islohotlar o’tkazilmoqda. O’tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamini yaratildi. Ijtimoiy siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlanmoqda va takomillashtirilmoqda. Vatanimizning rivojlanishi va



islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Yoshlar-kelajagimiz egalari, yurtimizning ishonchli vorislaridir. Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o'y-fikrlari, ma'naviy qiyofasiga qarab shu jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlardan yoshlar o'zlarining ma'naviyatini yanada boyitishga, dunyoqarashini kengaytirishga, huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishda, eng asosiysi ularda Vatan uchun, oilasi uchun ma'sullik xissini oshirishda Vatan oldidagi yuksak vazifalarini sitqidildan bajarishga imkon berishlarida keng foydalanishadilar. Hamda bugungi kunlarda turli sohalarda erishgan hamda egallayotgan bilimlarini ona Vatnimizni yanada gullab yashnashi uchun safarbar etishadi degan umiddamiz. Biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va ayni paytda o'ta murakkab zamonda yashamoqdamiz. Mutaxassislar bu tezkor davrni "ommaviy axborotlashuv" yoxud "globallashuv asri" deb atashmoqda. Boisi yer yuzining qaysidir bir chekkasida yuz bergan voqeadan bir necha soniya ichida butun dunyo ahli xabar topmoqda. Ham ijobiy, ham salbiy tomonlarni o'zida qamrab olgan globallashuv jaroyonlari dunyo xalqlarini ona sayyorani farzandlariga aylantirdi. Ijobiy tomondan, globallashuv ilm-fan taraqqiyoti, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik sub'ektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, mamlakatda "axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratish masalalarini qamrab oladi. Salbiy tomondan, hozirda Yer yuzida axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan sharoitida, ayrim "markazlar" bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida g'arb hayoti "jozibalari" ni jumladan, "ommaviy madaniyat" ta'sirini erkinlik shabadalari tarzida imkon qadar kengroq yoyishga bor kuchi bilan harakat qilmoqda. Buning natijasida mafkurasi hali shakllanib ulgurmagani va tafakkurida g'oyaviy bo'shliq hosil bo'lgan ayrim shaxslar bu kabi illatlar ta'siriga juda tez tushib qolish holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bunday xolatda mamlakatimizda milliy axborot tizimimizni yanada mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi masalalariga e'tiborni yanada kuchaytirish taqazo qilinadi. Zero Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga



mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"[3]. Darhaqiqat globallashuv sharoitida "Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda". Ta'kidlash kerakki, globallashuv jarayonlarida axborotlashuvning kengayishi ma'naviy tahdidlarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Bu esa ma'naviyatni yoshlar ongiga singdirish, inson qalbiga yo'l topishni har tomonlama puxta o'ylangan tizimli ravishda olib borish bu sohadagi faoliyatni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Xech kimga sir emaski bugun yoshlar axborot extiyojlarini ommaviy axborot vositalari (OAV) dan olmoqda. Shu bois mamlakatimizda yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi dasturlar, saytlarda ta'lim-tarbiyaga oid maqolalarni doimo yangilab borish kerak. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar sohasida faoliyat yuritgan O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy, tarixiy va falsafiy merosi, ularning astronomiya, matematika, geografiya, geodeziya, tibbiyot, farmakologiya, kimyo, mineralogiya kabi zamonaviy ilm-fan shakllanishi va rivojlanishiga qo'shgan ulkan hissasiga oid maqolalarni ko'proq berish zarur deb hisoblaymiz. Bu xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilab qo'yilganidek, zamonaviy ilmiy bilimlar bilan qurollangan va barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'limning yangi milliy modeliga to'liq o'tish jarayonlariga mos keladi. Zero, yuksak ilmiy salohiyatga ega bo'lgan insonlarga jamiyatning gullab-yashnashini ta'minlay oladi. Tajribasi ham bo'lmagan yoshlarning hayotiy tushuncha va tasavvurlarini asosan OAV hamda internet shakllantirmokda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'ymokda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu o'rinda axborot madaniyati deyilganda ta'lim, ilmiy bilish va faoliyatning boshqa turlari davomida yuzaga keladigak axborotga bo'lganehtiyojlarni qondirishga qaratilgan bilimlar, o'quv va ko'nikmalarning tizimlashtirilgan yig'indisi tushuniladi. Yosh avlodning ma'naviy olamini buzg'unchi ta'sirlardan asrash uchun ta'lim-tarbiya jarayonida qanday tamoyillarga asoslanish va qanday jihatlarga e'tibor qaratish kerak, degan masala barcha ustoz-murabbiylarning, davlat xizmati, jamoat va nodavlat tashkilotlarning diqqat markazida turishi lozim. Fikrimizcha, globallashuv sharoitida yoshlarning tafakkur tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratish ular ma'naviy olamining daxlsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki, qaerda yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1 “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”. Toshkent.O‘zbekiston 2023.
25-modda

2.I.S.Saifnazarov, A.N.Mamirov Globallashuv sharoitida talaba yoshlarning tolerantlik fazilatini rivojlantirishning innovatsion usullari. 2010.

3.Sh.M.Mirziyoev “Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning xal qiluvchi kuchidir”. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining quriltoyida so‘zlagan nutq. 2017yil 30 iyun. To‘la asarlar to‘plami 1-jild, Toshkent “O‘zbekiston” 504-505 betlar.

